

YOSHLAR ORASIDA PSIXOTROP MODDALARINING TARQALISHI, TA`SIRI VA UNGA QARSHI HUQUQIY CHORALAR

Shavkatov Elbek Samariddin o`g`li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlar orasida bugungi kunda muammoga aylangan psixotrop moddalari nima ekanligi ularning qanday usullar bilan tarqalishi va inson salomatligiga ko`rsatayotgan jiddiy salbiy ta`sirlari haqida hamda yoshlar orasida keng tarqalayotgan sintetik psixoaktiv moddalar (xususan, sintetik kannabinoidlar va katinonlar) keltirib chiqarayotgan biologik, ijtimoiy-huquqiy tahdidlarni tahlil qilishga bag`ishlangan. Tadqiqot sintetik moddalarning an`anaviy giyohvand moddalardan farqli ravishda markaziy asab tizimiga tezkor va kuchli toksik ta`sirini ilmiy manbalar asosida ochib beradi va ruhiy kasalliklar va og`ir jismoniy oqibatlarning yoshlarda qisqa muddatda rivojlanishiga sabab bo`layotgan moddalar xavfidan ogohlantiradi. Shuningdek, maqolada O`zbekiston Respublikasining mavjud qonunchilik choralari, jumladan, Jinoyat kodeksining 273-moddasi va Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 56-4-moddasi normalari tahlil qilinadi.

Kirish so`zlar: Psixotrop moddalar, Sintetik kannabinoidlar, Sintetik katinonlar, Sintetik psixoaktiv moddalar, Jinoyat kodeksi

Kirish

Butun dunyoda va O`zbekistonda voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalarini iste`mol qilish holatlari kundan – kunga ortib borayotgani millat uchun va aholi salomatligi uchun kata xavf tug`dirmoqda. Bugungi kunda ommalashishga ulgurgan va rivojlanayotgan sintetik yoki psixotrop moddalari ananaviy giyohvand moddalaridan tarkib jihatidan, narx jihatidan hamda ko`rinish jihatidan tubdan farq qiladi. Shuningdek, ularning tez tarqalishi, yashirish va iste`mol uchun qulayligi yoshlar orasida tarqalishini yanada osonlashtirdi va tezlashtirdi. Bu holat nafaqat tibbiy jihatdan yondashuvni, balki huquqiy yondashuvni va o`rganishni ham talab qiladi. Psixotrop moddlari boshqacha aytganda odamlar orasida “sintetik kayf” nomi bilan ham ataladigan bu og`u butun dunyo bo`ylab o`zining salbiy ta`sirlarini namoyon qilmoqda. Psixotrop moddalari – bu markaziy asab tizimiga bevosita ta`sir etib, iste`mol qilgan odamning kayfiyatini, xulq – atvorini va ongini o`zgartirib yuboruvchi kimyoviy birikmalardir. Bunday moddlar, asosan, dori vositalari sifatida tibbiyotda nazorat ostida qo`llanilsa – da, noqonuniy iste`molga kirishish natijasida kuchli ruhiy bosim va jismoniy sustlik holatlarini keltirib chiqaradi. Bugungi kunda “tramadol”, “lirika”, “retard” kabi psixotrop moddalar, “spays”,

“miks”, “legal high”, “sintetik kannabinoidlar” va “sintetik katinonlar” kabi sintetik psixoaktiv moddalar keng tarqalgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – psixotrop moddalarining salbiy taʼsirlarini ochib berish, noqonuniy aylanishining zamonaviy usullariga eʼtibor qaratish hamda Oʻzbekiston qonunchiligida belgilangan jazo choralarini tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun belgilangan vazifalar quyidagilardir:

1. Psixotrop moddalarning ilmiy taʼrifini, ularning turlarini narkotik moddalardan farqlarini hamda organizmga salbiy taʼsir xususiyatlarini tahlil qilish va tushuntirish.
2. Psixotrop moddalarining yoshlar orasida tarqalishiga imkoniyat yaratayotgan zamonaviy yaʼni internet, ijtimoiy tarmoqlar va kuryerlik xizmatari haqida maʼlumotlar berish va internet foydalanuvchilarini ogohlikka chaqirish.
3. Psixotrop moddalarining muomalasi, sotuvi va isteʼmoliga qarshi mavjud milliy qonunchilik (Jinoyat kodeksi va Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks) normalarini koʻrib chiqish.

Adabiyotlar tahlili

Sintetik kannabinoidlar va Sintetik katinonlar: Umumiy maʼlumot.

Kundan – kunga psixoaktiv moddalarning turlari va tarkiblari oʻzgarib bormoqda. Xususan, bugungi kunda koʻp tarqalgan psixoaktiv moddalardan sintetik kannabinoidlar va sintetik katinonlarning tarqalishi global muammoga aylangan. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki bu moddalar tabiiy analoglarga nisbatan yuqori kuchga, tezkor rivojlanuvchi qaramlik xususiyatiga va oldindan taxmin qilish qiyin boʻlgan ogʻir toksikologik taʼsirlarga ega. **Sintetik kannabinoidlar (SC):** bular marixuana moddasida uchraydigan faol 9 – tetrahidrokannabinol (**Delta9 – THC**) taʼsirini taqlid qilish uchun yaratilgan geterogen guruhdagi kimyoviy birikmalardir. Ular odatda quritilgan oʻt – oʻlanlarga sepilgan holda “**Spice**”, “**K2**” kabi nomlar ostida sotiladi. SC lar tabiiy kannabisga nisbatan kuchliroq boʻlib, nafas olishning susayishi, yurak xastaliklari, psixoz, kuchli tashvish va zoʻriqish kabi oʻta xavfli salbiy taʼsirlarni keltirib chiqaradi. **Sintetik katinonlar (bk – amfetaminlar):** bular **Khat (Catha edulis)** oʻsimligidan olinuvchi tabiiy katinon alkaloidining sintezlangan hosilalaridir. Ular amfetamin va kokain kabi farmakologik taʼsir koʻrsatadi. Katinonlar markaziy asab tizimiga taʼsir qilib, miyada dofamin, serotonin, norepinefrin kabi neyrottransmitter darajasini oshiradi. Ularning klinik taʼsirlari orasida taxikardiya va jiddiy nevropsixiatrik buzilishlar uchraydi. Katinonlarning eng koʻp tarqalgan turlari bu “**Mefedron**”, “**Alfa**” (**flakka**) lardir.

Psixotrop moddalarining zamonaviy tarqalish yoʻllari

Zamonaviy psixotrop moddalarining tezkor va yashirin yoʻllar bilan oson tarqalishida internet texnologiyalari, shifrlangan messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar

kata rol o'ynamoqda. Bu moddalarni tarqatish yo'lidagi shaxslar anonimlikni ta'minlovchi platformalardan foydalanishlari tabiiy. Xususan, **Telegram** kabi messenjerlarning yuqori darajadagi shifrlanishi va anonimlikni saqlash imkoniyati, shuningdek, botlar va yashirin kanallar orqali keng auditoriyaga tezkor axborot yetkazish funksiyalari psixoaktiv moddalari savdosini yashirin va samarali olib borish imkonini beradi. Sotuvchilar xaridorlarni onlayn tarzda anonimlikni saqlagan holda jalb qilib, to'lovni ko'pincha kriptovalyuta orqali qabul qiladi, bu esa ularning izini topishni yanada qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, moddalar bevosita sotuvchidan xaridorga yetkazilmaydi, balki oldindan belgilangan joylarga joylashtiriladi va xaridorlarga xabar beriladi: bu ("**zakladka**" usuli) deyiladi. Shuningdek, kuryerlar va kichik yollangan shaxslar bu moddalarni tarqatish uchun xizmat qiluvchi "jinoyat zanjirining" bir qismi hisoblanishadi. Giyohvand moddalarning bu usul bilan tarqalishi jinoyatlarning turi va soni oshishiga va voyaga yetmaganlarning psixotrop moddalarini iste'mol qilmasdan turib ham jinoyatga kirib qolishlariga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks moddalarining tahlili:

O'zbekiston Respublikasi qununchiligida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari va ularning analoglarining noqonuniy muomalasiga qarshi qat'iy choralar belgilangan. Bu sohadagi asosiy normativ huquqiy hujjatlar: "Giyohvand moddalari va psixotrop moddalari to'g'risida" gi Qonun (1999 – yil) va Jinoyat kodeksi (**JK**) hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks (**MJTK**) hisoblanadi. (**JK**) 273 – **modda** ya'ni (Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlarni amalga oshirish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish): ushbu modda noqonuniy giyohvandlik moddalarining muomalasini to'g'ridan to'g'ri javobgarlikka tortish uchun asosdir. Bunan tashqari (**JK**) 273 – moddaning "**d**" bandiga ko'ra (telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa) og'irlashtiruvchi holat sifatida alohida ko'rsatilgan. Bu norma psixotrop moddalarini onlayn tarqatishga qarshi kurashish uchun asos bo'ladi. Shuningdek, (**JK**) 273 – modda uchinchi qismi "**g**" bandida (O'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar tomonidan o'quv, sport, va jamoat tadbirlarini o'tkazish uchun foydalaniladigan boshqa joylarda sodir etish) aynan yoshlar muhitidagi jinoyatlarga e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, (**MJTK**) 56 – **modda** (Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni oz miqdorda g'ayriqonuniy ravishda tayyorlash, olish,saqlash, tashish yoki jo'natish) va (**MJTK**) 56 "**4**" – **modda** (Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish): bu modda giyohvand moddalarini iste'mol qilish, tarqatish va reklama qilishga yoki ularni tarqatishni targ'ib qilish to'g'risidagi har qanday ma'lumotni taqiqlaydi va

ma'mumiy javobgarlikka tartadi. Ushbu modda, bugungi kunda turli ijtimoiy tarmoq platformalari orqali psixotrop moddalarining noqonuniy muomalasini targ'ib qilinayotgan faoliyatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Asosiy qism (Metodologiya)

Ushbu tadqiqot psixotrop moddalarining yoshlar orasida tarqalishi, ularning ta'siri va O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimidagi qarshilik choralari o'rganishga qaratilgan bo'lib, asosan huquqiy – tahliliy va empirik ma'lumotlarga asoslangan deduktiv yondashuvlardan foydalanadi.

1. Normativ-huquqiy tahlil usuli: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (JK), Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (MJTK) va tegishli qonunosti hujjatlaridagi psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga oid normalar (xususan, JK 273-modda, MJTK 56-modda) chuqur tahlil qilindi. Bu usul amaldagi qonunchilik normalarining mazmunini, sanksiyalarning qat'iyligini va yoshlar muhitida sodir etilayotgan jinoyatlarga nisbatan qo'llanilish amaliyotini o'rganishga xizmat qildi.

2. Taqqoslash usuli: Sintetik psixoaktiv moddalarning (sintetik kannabinoidlar, katinonlar) tarqalish tezligi va usullari (internet, kuryerlik) an'anaviy giyohvand moddalarining tarqalish yo'llari bilan taqqoslandi. Bu taqqoslash zamonaviy tahdidning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

3. Sistemali-strukturaviy yondashuv: Psixotrop moddalarning inson organizmiga ta'sirini tushuntirishda tibbiy va farmakologik adabiyotlar (kannabinoid va katinon reseptorlari faoliyati) tahlili asosida, bu moddalarning markaziy asab tizimiga salbiy ta'sir mexanizmlari ilmiy jihatdan izohlandi. Bu yondashuv huquqiy choralar zarurligini tibbiy dalillar bilan asoslash uchun muhimdir.

Tadqiqotning to'liq haqqoniyligini ta'minlash maqsadida, barcha ma'lumotlar ilmiy adabiyotlardan olindi.

Xulosa

Psixotrop moddalarining yoshlar orasida tarqalishi nafaqat tibbiy-profilaktik, balki milliy xavfsizlik va huquqiy xarakterdagi global muammo bo'lib qolmoqda. Sintetik moddalar (kannabinoidlar va katinonlar) o'zining kuchli toksik ta'siri, past narxi va tez tarqalish mexanizmlari orqali avvalgi giyohvandlik tahdidlaridan tubdan farq qiladi. Internet texnologiyalari (shifrlangan messenjerlar, kriptovalyutalar) orqali amalga oshirilayotgan savdo va "zakladka" usuli jinoyatchilikning aniqlanishini sezilarli darajada qiyinlashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi (JK 273-modda va MJTK 56-4-moddalar) bu yangi tahdidlarga nisbatan moslashgan va qat'iy jazo choralari belgilagan bo'lib, ayniqsa, onlayn tarqatish va yoshlar muhitidagi jinoyatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq, qonunchilikning samaradorligi faqatgina jazolash bilan emas, balki profilaktik

ishlar, aholini va yoshlarni xabardorligini oshirish hamda huquqni qo'llash organlarining kiber-jinoyatlarga qarshi kurashish salohiyatini kuchaytirish bilan ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz. (2024). 22.09.1994. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. [online] Available at: <https://lex.uz/docs/111453>
- Lex.uz. (2025). 22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. [online] Available at: <https://lex.uz/docs/-97664>
2. Logan, B. and Kacinko, S. (2016). Pharmacology, Toxicology, and Adverse Effects of Synthetic Cannabinoid Drugs. [online] Academia.edu. Available at: https://www.academia.edu/download/41816687/Pharmacology_Toxicology_and_Adverse_Effe20160131-13806-11d7tvf.pdf [Accessed 30 Nov. 2025]
3. <https://www.benthamdirect.com/content/journals/cn/10.2174/1570159X13666141210224137>
4. Prilutskaya, M., Kazakhstan, S. and Doc, P. (n.d.). New Psychoactive Substances Studies from Central Asia and China. [online] Available at: https://www.frankfurt-university.de/fileadmin/standard/ISFF/Frankfurt_Final_Prilutskaya.pdf
5. Baweja, R., Mills-Huffnagle, S., Jernigan, A., Nungshitombi Chongtham, Waschbusch, D. and Waxmonsky, J.G. (2024). Synthetic Marijuana: Assessment of Usage, Motivation and Associated Risks in Adolescent Substance Users. Substance use, 18. doi: <https://doi.org/10.1177/29768357241254258>
6. Merz, F. (2018). United Nations Office on Drugs and Crime: World Drug Report 2017. 2017. SIRIUS - Zeitschrift für Strategische Analysen, 2(1), pp.85–86. doi: <https://doi.org/10.1515/sirius-2018-001> .
7. Zashidova, G.A. (2022). New psychoactive substances (NPS) and problems associated with their use in the world and in Uzbekistan. Nomos Verlagsgesellschaft mbH & Co. KG eBooks, pp.69–92. doi: <https://doi.org/10.5771/9783748914037-69>
8. Sokolova, E., T. Mekhdiev, Elnur, Nurov, B. and Ibragimov, F. (2024). The Economic Approach to the Analysis of Drug Trafficking in Central Asia. Geopolitics Quarterly, [online] 20(2), pp.114–133. doi: <https://doi.org/10.22034/igq.2024.178974>